





2021- yil yanvar oyi uchun Qoraqalpog'iston Respublikasida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar oyida, Qoraqalpog'iston Respublikasida jami 324,9 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan 101,0 % ni tashkil etdi.


Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da



Yirik qurilish
tashkilotlari




Kichik korxonalar va
mikrofirmalar



Norasmiy sektor

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.




Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu - o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



2021- yilning yanvar oyida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi

Joriy yilning yanvar oyida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 23,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan 152,2 % ga ko'p bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan 2,4 % punktga ko'payib, 7,2 % ni tashkil etdi.



Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Taxiatoş tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 48,8 % i yoki 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan 259,5 %), Qo'ng'iro't (tumanagi jami qurilish ishlari hajmining 37,2 % i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 134,8 %), va Kegeyli tumanlari (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 7,6 % i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 113,6 %)ga to'g'ri keldi.



48,8

Taxiatoş

37,2

Qo'ng'iro't

7,6

Kegeyli



2021- yil yanvar

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI



Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi



2021- yilning yanvar oyida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **73,5 %** i to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar oyi ko'rsatkichiga nisbatan **3,2 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **97,9%** ni tashkil etgan holda **238,9** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi, % da



Ma'lumot uchun: Joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori hajm ko'rsatkichi Nukus shahri 104,4 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 91,4 %, To'rtko'l tumani (20,3 mlrd. so'm yoki 70,6 %), Qo'ng'iro't (15,8 mlrd. so'm yoki 47,7 %) va Mo'ynoq (12,3 mlrd. so'm yoki 85,6 %) tumanlariga to'g'ri keldi.


2021- yil yanvar

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI



Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 19,3 % ni tashkil etdi yoki 62,6 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan 100,4 % ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 18,8 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 306,1 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda 5,8 % va 94,2 % ni tashkil etdi.



2021- yil yanvar

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI



2021- yilning yanvar oylarida shahar va tumanlar kesimidagi qurilish ishlari



	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan ulushi % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	324,9	101,0	100,0
Nukus sh.	114,3	100,1	35,2
tumanlar:			
Amudaryo	11,4	100,2	3,5
Beruniy	15,9	92,0	4,9
Bo'zotov	5,1	104,1	1,6
Qorao'zak	4,7	100,9	1,5
Kegeyli	7,9	100,4	2,4
Qo'ng'iro't	33,2	106,4	10,2
Qonliko'l	5,5	98,1	1,7
Mo'ynoq	14,4	100,2	4,5
Nukus	16,9	93,9	5,2
Taxiatosh	14,4	113,1	4,4
Taxtako'pir	6,9	105,2	2,1
To'rtko'l	28,7	108,6	8,8
Xo'jayli	22,2	95,4	6,8
Chimboy	5,7	102,2	1,8
Shumanoy	4,3	100,2	1,3
Ellikqal'a	13,4	100,0	4,1

2021- yil yanvar

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

63,8 %

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 63,8 % i yoki **207,4** mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **12,5** mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 53,2 % ni tashkil etdi.

53,2 %

55,7 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **133,2** mlrd. so‘m yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 55,7 % ni tashkil etdi.

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **61,7** mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 98,6 % ni tashkil etdi.

98,6 %


Ma'lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko‘rsatish maqsadlari uchun obyektlari (bino va inshootlar) kompleksini qurish .



Respublikada iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



ulushi, % da



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

2021- yil yanvar

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI


Bino va inshootlar qurilishi



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **2,3 %** ni tashkil etib, 2020-yilning yanvar oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **0,4 %** punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020-yilning yanvar oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **2,0 %** punktga kamayib, **69,8 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2020-yilning yanvar oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **1,6 %** punktga ko'payib, **27,9 %** ni tashkil etdi.



2020- yil
yanvar



2021- yil
yanvar

2021- yil yanvar

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi, % da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **17,9 %** ni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan **10,2 %** punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **82,1 %** (**10,2 %** punktga kamayish) ni tashkil etdi.



2020- yil yanvar



2021- yil yanvar


2021- yil yanvar

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan **3,4 %** punktga ko'paydi va **18,5 %** ni tashkil etdi. Qolgan **81,5 %** i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan **3,4 %** punktga kamaydi.



2021- yil yanvar

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI



Korxonalar turlari bo'yicha shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari 2021- yil yanvar oyida


mlrd. so'm

	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik korxonalar va mikrofirmalar	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Qoraqalpog'iston Respublikasi	324,9	23,4	238,9	62,6
Nukus sh.	114,3	0,7	104,4	9,2
tumanlar:				
Amudaryo	11,4	0,1	7,2	4,1
Beruniy	15,9	0,1	8,3	7,5
Bo'zotov	5,1	0,1	4,4	0,6
Qorao'zak	4,7	0,1	3,9	0,7
Kegeyli	7,9	0,6	5,7	1,6
Qo'ng'iro't	33,2	12,4	15,8	5,0
Qonliko'l	5,5	0,1	3,8	1,6
Mo'ynoq	14,4	0,5	12,3	1,6
Nukus	16,9	0,4	11,9	4,6
Taxiatosh	14,4	7,0	5,6	1,8
Taxtako'pir	6,9	0,0	6,2	0,7
To'rtko'l	28,7	0,3	20,3	8,1
Xo'jayli	22,2	0,8	13,1	8,3
Chimboy	5,7	0,1	3,5	2,1
Shumanoy	4,3	0,0	3,1	1,2
Ellikqal'a	13,4	0,1	9,4	3,9


2021- yil yanvar

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI

Shahar va tumanlar kesimida bajarilgan qurilish ishlarining respublikadagi ulushi



Ma'lumot uchun: Qurilish ishlari hajmi bo'yicha respublikadagi eng yo'qori ulushga ega Nukus shahri - 35,2 %, Qo'ng'iro't tumani - 10,2 % va To'rtko'l tumani - 8,8 % ga to'g'ri keldi.



2021- yil yanvar

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH ISHLARI

Qoraqalpog‘iston Respublikasi statistika boshqarmasi

Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo‘limi

Aloqa telefoni: (61) 224-92-14

(61) 222-75-91

2021- yil yanvar

13

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI**